



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI IQTISODIY ALOQALARNI RIVOJLANTIRISHDA VALYUTA SIYOSATINING O'RNI

G. Ubaydullayeva¹

Turdaliyev Ravshanbek Abdulhoshim o'g'li²

¹Toshkent moliya instituti "Xalqaro moliya-kredit"
kafedrasi o'qituvchisi

²Toshkent moliya instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6570409>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10-may 2022

Chop etildi: 14-may 2022

KALIT SO'ZLAR

valyuta, valyuta siyosati, valyuta bozori, valyuta kursi, kross kurs, valyuta operatsiyalari, svop.

ANNOTATSIYA

Maqolada Respublikamizning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda valyuta siyosatining qay darajada muhim ekanligi, so'nggi yillar mobaynida valyuta sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarga alohida urg'u berilgan. O'zbekistonda valyuta bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xorijiy sarmoyalar ishtirokida yangidan-yangi qo'shma korxonalar vujudga kelib tashqi iqtisodiy faoliyatga qo'shilmoqda. Tabiiyki, mazkur tashqi iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari xorijiy sheriklar ioldidagi majburiyatlarini bajarish uchun xorijiy valyutani sotish yoki sotib olishga kuchli ehtiyoj sezmoqdalar. Mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va tashqi iqtisodiy faoliyat shakllanishida asosiy o'rinda turuvchi valyuta qonunchiligi doimo davomiy rivojlanish va takomillashishda bo'lmog'i lozim.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish, tashqi iqtisodiy munosabatlarni jadallashtirish yo'lida yurtboshimiz buyruqlari va hukumatimiz qarorlari bosqichma-bosqich qabul qilindi. Valyuta bozorini erkinlashtirish uchun Xalqaro Valyuta Fondi Bitimi VIII

moddasiga muvofiq joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha konvertatsiya yo'lga qo'yildi.

Ma'lumki, so'nggi paytlarda valyuta sohasini erkinlashtirish va bu boradagi islohotlarni jadallashtirish hukumatimiz e'tibori markazida turibdi. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash yo'nalishi doirasida valyuta fond bozori hajmini 7 mlrd dollarga yetkazish vazifasi belgilangan.¹

2.Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Valyuta siyosatini erkinlashtirish masalalari borasida bir qancha mahalliy olimlar tadqiqot olib borganlar. Xususan, Jumayev tomonidan mamlakatimizda valyuta munosabatlarini tartibga solish,

¹ 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 28.01.2022 PF-60-son.



valyuta kursi rejimini tanlash masalalari atroflicha keng yoritilgan.²

Xoshimov (2012) fikricha, rivojlanayotgan davlatlar valyuta bozori asosan spot bozoridan tashkil topganligi, valyuta operatsiyalari asosan mamlakat ichki valyuta bozorida amalga oshirilishi, valyuta bozoridagi konsentratsiyalashuv darajasi yuqoriligi, banklararo valyuta savdosi hajmining nisbatan pastligi rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida valyuta bozorlari rivojlanishiga xos asosiy xususiyatlar hisoblanadi.

Akbarov (2020) fikricha, yaqin istiqbolda rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy valyutalari global valyuta operatsiyalarida yetakchilik qilish imkoniyatiga ega emas. Ayni paytda rivojlangan mamlakatlar orasida ham AQSh valyutasining yuqori likvidlikka ega ekanligi va valyutalar juftliklarida va kross kurslarda ishtirok etishi bois hali-hanuz yetakchilikni boy bermasligini ko'rish mumkin.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni ilmiy o'rganish, tarixiy-mantiquylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil va ilmiy abstraktsiya kabi usullardan foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar

Valyuta munosabatlarini rivojlantirishda iqtisodiy rivojlangan davlatlarning roli katta ahamiyatga ega. So'nggi o'n yillikda rivojlanayotgan davlatlar ham, o'tish davrini boshdan kechirayotgan davlatlar ham bu boradagi faoliyatini faollashtirdilar.

Har bir rivojlanayotgan davlat iqtisodiy vaziyatni muvofiqlashtirish bilan

bog'liq bo'lgan o'z valyuta siyosatini olib borish bilan birga, to'lov balansi taqchilligini tenglashtirishga, importni cheklashga va tovarlar eksportini rag'batlantirishga, milliy valyuta zaxiralarini himoya qilishga intiladi.

Har qanday davlatning xalqaro faoliyati milliy valyuta bozorini tashkil etishning muayyan normalari va tamoyillarini ishlab chiqishni, shuningdek, jahon pul bozorlarida mavjudligini nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, mamlakat ichida va xorijda pul-kredit munosabatlarida ustuvorliklarni belgilovchi valyuta siyosatini shakllantirish zarur. Jahon iqtisodiy adabiyotlarida valyuta siyosatining mohiyati to'g'risida umumiy fikr mavjud emas.

Zamonaviy iqtisodiy lug'atda valyuta siyosati "davlatning iqtisodiy siyosatining va tashqi iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lib, davlatning mamlakat ichida va tashqarisida valyutaga, valyuta kursiga ta'sir qilish orqali ishlab chiqariladigan harakat yo'nalishini ta'minlaydi."³ U valyutani tartibga solish va nazorat qilishni, shuningdek, xalqaro hamkorlikni (shu jumladan, xalqaro moliya tashkilotlarida ishtirok etishni) o'z ichiga oladi.

Har qanday siyosat, xususan, valyuta siyosati har qanday muammolarni hal qilishga qaratilgan harakatlar majmui bo'lganligi sababli, ushbu atamaning aniqroq ta'rifi shunday ko'rinishi mumkin:

Valyuta siyosati - barqaror makroiqtisodiy o'sishga erishish maqsadida ichki valyuta bozorini tashkil etish hamda mamlakatning xalqaro valyuta-kredit munosabatlaridagi o'zini

² Jumayev N.X., Yuldashev M.I. Jahon moliyaviy inqirozi va uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. // «Fan va turmush» jurnali, 2008.

³ Borisov S.M. Yevroosiyo integratsiyasining pul-moliyaviy muammolari [Matn] / S.M. Borisov. - M., IMEMO RAN, 2014 - 92 b.



tutish tamoyillari va normalarini belgilashga qaratilgan davlat chora-tadbirlari majmuidir.⁴

Ushbu ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy o'rinlardan birini egallamoqda. Chunki, pul muomalasini tartibga solish, kredit-bank sohasini nazorat qilish, qat'iy pul-kredit va valyuta siyosatini amalga oshirish uning funktsiyalariga kiradi.⁵

Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish ("valyuta savati"ni shakllantirish) – davlat, banklar, valyuta bozorining boshqa ishtirokchilarining o'z tarkibiga turli valyutalarni kiritish orqali ularning valyuta aktivlari tarkibini tartibga solishga qaratilgan harakatlaridir.

Zamonaviy jahon valyuta tizimining asosiy tendensiyalaridan biri valyuta polisentrizmi tomon harakatlanish, dollardan "ko'p valyutali standart"ga o'tish jarayonidir. Bu tendensiya G'arbning yetakchi kuchlari o'rtasidagi kuchlar muvozanatidagi real o'zgarishlar, G'arbiy Yevropa iqtisodiy salohiyatining o'sishi natijasidir.

Valyuta zahiralarini diversifikatsiya qilish zarurati valyuta riskini kamaytirish, mablag'larni joylashtirishning yuqori ishonchligini ta'minlash zarurati bilan bog'liq. Valyuta zaxirasini shakllantirishda yo'qotishlarga yo'l qo'ymaslik uchun markaziy banklar jahon valyuta bozorlarining hozirgi konyunkturasini, valyuta kurslarining qisqa muddatli tebranishlari istiqbollari hisobga oladi. Ushbu muammoni hal qilish valyuta bozorlarini doimiy ravishda kuzatib boradigan va ularning konyunkturasidagi

o'zgarishlarga tezkor javob beradigan yuqori malakali mutaxassislar tomonidan taqdim etiladi.

2001, 2002, 2017- yillarda valyuta kursining keskin o'zgarishiga mamlakat valyuta siyosatida amalga oshirilgan inqiloblar sabab bo'ldi. Ya'ni, 2000-yil 1-mayda 1 AQSh dollarining rasmiy kursi 149,38 so'mdan 231,00 so'mga (54,6%), 2001-yil 11-mayda 433,70 so'mdan 68,90 so'mga (57,0%), 5/0 2017 yil 421,35 so'mdan 8100,00 so'mga (92,4%), 24 yil davomida esa o'rtacha 27,4% ga oshgan.⁶

⁴ Bunkina, M.K. Pul. Banklar. Valyuta. 2015-yil–289 b.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 11.11.2019, O'RQ-582-son. <http://lex.uz//ru/docs/-4590452>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi materiallari, 2020: www.stat.uz



1995-2022-yillarda milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan kursining o'zgarishi.⁷

Sana	Valyuta kursi, So'm/AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (foizda)	Dastlabki davrga nisbatan o'sish sur'ati (foizda)
01.01.2001	325.00	2.321	13.000
01.01.2002	688.00	2.117	27.520
01.01.2003	970.00	1.410	38.800
01.01.2004	980.00	1.010	39.200
01.01.2005	1058.00	1.080	42.320
01.01.2006	1180.00	1.115	47.200
01.01.2007	1240.00	1.051	49.600
01.01.2008	1290.00	1.040	51.600
01.01.2009	1393.00	1.080	55.720
01.01.2010	1511.40	1.085	60.456
01.01.2011	1640.00	1.085	65.600
01.01.2012	1795.00	1.095	71.800
01.01.2013	1985.46	1.106	79.418
01.01.2014	2202.20	1.109	88.088
01.01.2015	2422.40	1.100	96.896
01.01.2016	2809.98	1.160	112.399
01.01.2017	3231.48	1.150	129.259
01.01.2018	8120.07	2.513	324.803
01.01.2019	8339.55	1.027	333.582
01.01.2020	9507.56	1.140	380.302
01.01.2021	10476.92	1.102	419.076
01.01.2022	10837.66	1.034	433.506
O'rtacha yillik ko'rsatkich		1.251	

⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan: www.cbu.uz



Valyuta munosabatlarini tartibga solish doirasidagi muhim masalalardan biri-to'lov balansi masalasidir. O'zbekiston Respublikasining 2010-2019 yillardagi tashqi savdo balansi ijobiy edi. Natijada mazkur davrlarda to'lov balansi defitsitsiz ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan valyuta siyosati inflyatsiyaga qarshi siyosat olib borish orqali milliy valyutaning to'lov qobiliyatini mustahkamlash, to'lovlar va hisob-kitoblar tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Valyuta kursining barqarorligi inflyatsiyani boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Korrelyatsiya tahlili natijasida ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashimiz mumkin.

Valyuta tartibotlari, xalqaro valyuta bozorlari, rivojlanayotgan va sanoati rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan valyuta kurslarini qo'llash uslublari masalalariga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan valyuta siyosati, bevosita hukumat tomonidan ishlab chiqilgan islohotlar strategiyasiga muvofiq holda olib borilmoqda. Davlat tomonidan valyutaviy

huquqlarni himoyalashga doir mustahkam qonunchilik va institutsional asosni yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rgan holda - davlat bosh islohotchi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Bu shuningdek, valyuta bozori infratuzilmasini yaratishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan siyosatning amalga oshirilishida ham namoyon bo'lmoqda. Shu tarzda, davlat islohotlarning murakkab bosqichlarida islohotlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan yetakchi kuch ekanligini ko'rsatmoqda. Davlat shuningdek, bir qator maxsus davlat organlarini tashkil etish yo'li bilan islohotlarni tartibga solishni amalga oshirmoqda. Albatta, Markaziy bank davlat banki sifatida bu borada muhim o'rin tutadi.

Turli davrlardagi valyuta siyosatining o'ziga xos vazifalariga quyidagilar kiradi: valyuta inqirozini bartaraf etish va valyuta barqarorligini ta'minlash, to'lov balansini kuchaytirish maqsadida valyuta cheklovlarini joriy etish, valyuta konvertatsiyasiga o'tish, xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish, valyuta rejimini liberallashtirish va boshqalar. Valyuta siyosatining asosiy shakllari quyidagi 1-rasmda keltirilgan



1-rasm. Valyuta siyosatining asosiy shakllari⁸


⁸ Balatskiy E. Valyuta kurslari va foiz stavkalari: empirik hisob-kitoblar, 20.08.2016

Diskont (hisob) siyosati Markaziy bankning diskont stavkasini (qayta moliyalash stavkasini) o'zgartirishni nazarda tutadi:

- kapitalning xalqaro harakati;
- ichki kreditlar dinamikasi, pul massasi, mamlakat ichidagi narxlar.

Bularni oshirish orqali Markaziy bank milliy valyuta kursini oshirish maqsadida mamlakatga chet el kapitalining kirib kelishi va milliy kapitalning repatriatsiya qilinishiga umid qilmoqda. Rasmiy kursning oshishi valyuta kursini ushlab turishga yordam beradi, chunki bu valyutaga bo'lgan talabni rag'batlantiradi va uning pasayishi milliy valyutaning zaiflashishiga olib keladi.

Valyuta siyosati O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati bilan uzviy bog'liqdir. Ularning ikkalasi ham davlat iqtisodiy siyosatning ajralmas qismidir. Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish bozor mexanizmlari asosida erkin shakllanadigan suzib yuruvchi valyuta kursining amal qilishini talab etadi. Bunda, Markaziy bankning valyuta siyosati va intervensiya strategiyasining aniq belgilab olinishi, shaffoflikning ta'minlanishi hamda qabul qilinayotgan qarorlarni valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan to'liq tushunilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida O'zbekiston Respublikasi kunlik valyuta operatsiyalari tasnifi va hajmi keltirilgan. (2-rasm)




2-rasm. Valyuta operatsiyalarining kunlik o'rtacha miqdori (mlrd. so'm).⁹

⁹Ichki valyuta bozorining 2021-yil holati bo'yicha qisqacha sharhi - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

Ichki valyuta bozorini erkinlashtirishda milliy valyuta ayirboshlash kursining shakllanishida bozor sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning davom ettirilishi Markaziy bankning mazkur yo'nalishdagi ustuvor vazifasi bo'lib qoladi. Ushbu maqsadda Markaziy bankning valyuta kurslari shakllanish jarayoniga

aralashuvini kamaytirib borish, valyuta intervensiyasi strategiyasini erkin suzib yuruvchi valyuta kursi tamoyillari asosida takomillashtirish hamda iqtisodiyot sub'ektlari va valyuta bozori ishtirokchilarini yangi sharoitlarda ishlashga tayyorlab borish ko'zda tutilmoqda.



3-rasm. 2019-2021-yillarda ichki valyuta bozori segmentlari kesimida chet el valyutasiga bo'lgan talab dinamikasi.(mln. AQSH dollari)¹⁰

¹⁰Ichki valyuta bozorining 2021-yil holati bo'yicha qisqacha sharhi - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
https://cbu.uz/uz/press_center/reviews/584768/



Yuqorida mamlakatimiz jismoniy va yuridik shaxslarining chet el valyutasiga bo'lgan talabi statistik ma'lumoti keltirilgan.(3-rasm) Ko'rinib turibdiki chet el valyutasiga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida Respublikamizda valyuta siyosatini to'g'ri olib borish naqadar muhim va dolzarb masala ekanligini yana bir isbotlaydi. Xalqaro amaliyotda valyuta bozorida almashuv kursining erkin o'rnatilishida markaziy bankning minimal ishtiroki talab etiladi. Bunda faqatgina inqirozli vaziyatlar rivojlanishi markaziy banklarga ushbu bozorda erkin harakat qilishga va ayni vaqtda ularni tartibga solishga imkon yaratdi.

5.Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda mamlakatimizda valyuta siyosati, xususan, valyuta bozorini erkinlashtirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. valyuta siyosatini yanada rivojlantirish uchun oldimizda bir qator ustuvor vazifalar turibdi. Bu o'zgarishlar nafaqat mamlakat ichki iqtisodiyotiga, balki xalqaro iqtisodiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Valyuta siyosati mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hisobiga uning iqtisodiyotini tez sur'atlar bilan o'sishiga ko'maklashish, davlat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga har tomonlama integratsiyalashuvi uchun sharoit yaratishga qaratilgan.

Jahon iqtisodiy hamjamiyatining rivojlanishining hozirgi bosqichida milliy iqtisodiyotlarning muvaffaqiyatli faoliyat

yuzaga kelgandagina valyuta kursining keskin tebranishlarini oldini olish va valyuta bozorini barqarorlashtirish maqsadida Markaziy bank intervensiyani amalga oshiradi.

Valyuta siyosatini amalga oshirish uchun ob'ektiv asos bo'lib, tashqi savdo, kapitalar va kreditlarning harakati xizmat qiladi. Xalqaro mehnat taqsimotining yuzaga kelishi va rivojlanishi eksport-import operatsiyalarining yuzaga kelishiga va takomillashishiga asosiy sabab bo'ladi. Valyuta operatsiyalarining keng ko'lamda yuritishi uchun davlatning iqtisodiy siyosati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu hodisa ijtimoiy va iqtisodiy hayotda sodir bo'layotgan muayyan o'zgarishlar bilan bog'liq. Zamonaviy davlatning iqtisodiy funksiyalari murakkab va xilma-xildir. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishni amalga oshirar ekan, iqtisodiy vazifalarga, mamlakatning moddiy imkoniyatlariga va tartibga solishning to'plangan tajribasiga qarab o'zgarib turadigan usul va vositalar tizimidan foydalanadi. Davlat tomonidan tartibga solish usullaridan biri valyuta siyosatidir.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi o'zini barqarorlashtirish jarayonida uning alohida tarkibiy qismlariga emas, balki butun valyuta siyosatini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishi lozim. Muayyan muammolar mavjudligiga qaramay, mamlakatimizda mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tish va barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahonda yetakchilikni qo'lga kiritish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi". https://strategy.uz/index.php?static=deyatelnost_centra&lang=uz ;
2. Jumayev N.X., Yuldashev M.I. Jahon moliyaviy inqirozi va uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. // «Fan va turmush» jurnali, 2008. ;
3. Borisov S.M. Yevroosiyo integratsiyasining pul-moliyaviy muammolari [Matn] / S.M. Borisov.- M., IMEMO RAN, 2014-yil ;
4. Bunkina, M.K. Pul. Banklar. Valyuta. 2015-yil ;
5. Balatskiy E. Valyuta kurslari va foiz stavkalari: empirik hisob-kitoblar, 20.08.2016 ;
6. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ;
7. www.lex.uz – O'zbekiston qonunchiligi rasmiy sayti;
8. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi rasmiy sayti.